

**CHET EL ADABIYOTINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLAR****Ismoilova Shamsiyabonu Ulug'bek qizi**

Annotatsiya- *Ushbu maqolanida xorijiy adabiyotlarni o'qitishda innovatsion metodlarning o'rni haqida bilib olasiz.*

Abstract - *After reading this article, you will learn about the role of innovative methods in teaching foreign literature.*

Аннотация – *Прочитав эту статью, вы узнаете о роли инновационных методов в преподавании иностранной литературы*

Kalit so'zlar – *chet el adabiyoti, "Mening ertak qahramonim" va "Birma-bir" metodi, AKT*

Key words - *foreign literature, "My fairy tale hero" and "One-to-one" method, ICT*

Ключевые слова - *зарубежная литература, «Мой сказочный герой» и метод «Один-на-один», ИКТ.*

Rivojlangan davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqarganligi hech kimga sir emas. Innovatsion - inglizcha "yangilikni kiritish (tarqatish)" ma'nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan.

Xorijiy tillarni o'rganish jamiyatda juda muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda, ya'ni oilada, maktabda, ko'chada, universitetda, odamlar orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar tobora rivojlanayotgan bir paytda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda yurtimizda ko'plab yoshlar xalqaro va milliy til bilish sertifikatlarida o'zlarini sinab ko'rishmoqda va juda yaxshi natijalarga erishishmoqda.

Qadimdan ham ko'p tilni bilish keng miqyosda rivojlanganligi hech kimga sir emas. Hatto ijodkorlar orasida zullisonaynlik keng taraqqiy etgan. Bu nima uchun kerak, degan savolni o'rta tashlash mumkin. Avvalo shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki, har qanday badiiy yoki ilmiy asar o'z tilida asl mohiyatini ochib bera oladi, ya'ni badiiy asarlarni yozilgan tilida mutolaa qilish, ijodkor maqsadini anglash, qahramonlar holatini his etish o'quvchida boshqacha zavq va taassurot beradi. Har bir asarning qimmatini uning asil variantidadir. Negaki, asar bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda so'zdagi bo'yoqdorlik kamaya boshlaydi, ya'ni asar ma'nosi sustlasha boradi.

Men bolalarga badiiy asarlarning original variantini qiziqarli o'qitish uchun **"Mening ertak qahramonim"** metodini tavsiya qilaman. Bu metodda avvalo o'quvchilarning til bilish imkoniyatlari (qaysi tilligi va qaysi millat adabiyoti ekanligi) inobatga olinadi va shundan kelib chiqib, biror badiiy asar tanlanadi hamda bolalar berilgan masal yoki ertakni rollarga bo'lib o'qiydilar va yodlaydilar. Yodlash va o'qish



jarayonida audio materiallardan ham foydalansa, o'quvchilardagi aksent (talaffuz) bilan bog'liq muammolar ham bartaraf etiladi, hatto qahramonlar kiyimini kiyishlari ham o'quvchilarda ko'nikma paydo bo'ladi. Masalan, "Qarg'a va tulki" masalini olaylik.

Maître Corbeau, sur un arbre perché,

Tenait en son bec un fromage.

Maître Renard, par l'odeur alléché,

Lui tint à peu près ce langage :

"Hé ! bonjour, Monsieur du Corbeau.

Que vous êtes joli ! que vous me semblez beau !

Sans mentir, si votre ramage

Se rapporte à votre plumage,

Vous êtes le Phénix des hôtes de ces bois. "

A ces mots le Corbeau ne se sent pas de joie ;

Et pour montrer sa belle voix,

Il ouvre un large bec, laisse tomber sa proie.

Le Renard s'en saisit, et dit : "Mon bon Monsieur,

Apprenez que tout flatteur

Vit aux dépens de celui qui l'écoute :

Cette leçon vaut bien un fromage, sans doute. "

Le Corbeau, honteux et confus,

Jura, mais un peu tard, qu'on ne l'y prendrait plus.



Ushbu metod orqali uyda ota-onalar ham o'z farzandlari bilan shug'ullanib, farzandlarini til bilishga qiziqtirishlari, jahonning yirik badiiy asarlarini o'qitishda foydalanishlari mumkin.

Yoki yana bir "Birma-bir" metodini taklif qilaman. Bunda bolalar biri ikkinchi aytgan she'r misrani takrorlab o'zining ikkinchi misrasini aytadi. Bu bolalarning zehni o'tkir qiladi va boshqalarning fikriga bo'lgan e'tiborini oshiradi, bolalar o'rtasida do'stlik, birovni tinglash, hurmat qilish tuyg'ularini shakllantirishga yordam beradi. Bu metodda ham audiodan foydalansa yoki bolalardan yozib olib, so'ng bolalarning o'ziga qo'yib eshittirilsa, ularning o'zi xatolarini anglab tuzatishlari mumkin bo'ladi, albatta, mutaxassis nazoratida.



Le coquillage magique

*J'ai trouvé sur la plage
un très beau coquillage
qu'à la fin de l'été
chez moi j'ai ramené
De temps en temps le soir,
je le sors du tiroir
et j'écoute les vagues
déferler sur le sable
C'est la mer, c'est le ciel,
la plage, le soleil,
qui chantent à mes oreilles.*

1-bola: J'ai trouvé sur la plage

2-bola: J'ai trouvé sur la plage

Un très beau coquillage

3-bola: J'ai trouvé sur la plage

Un très beau coquillage

Qu'a la fin d'ete...

Va shunday tarzda bolalar davom ettirishadi va she'rni yod olishadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir asarning original variantini o'qiganda kitobxon shunday bir olamga tushadiki, kitobni o'qib tugatdan keyin ham qahramonlar olamida ancha vaqt yashaydi. Haqiqiy adabiyotni sevadigan, qadrlaydigan inson badiiy asarlarni asl variantini o'qishni xohlaydi va o'qish jarayonidagi zavqni to'yishni istaydi. Albatta bunday zavqni qo'lga kiritish uchun yoshlikdan bolalarga til o'rganishga ishtiyoq uyg'otish va o'sha tildagi badiiy asarlarni mutolaa qilish alohida katta mehnat talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Qarg'a va tulki" masali
2. "Le coquillage magique" bolalar she'ri
3. Mashhur fransuz yozuvchilari (1-qism)
4. <https://uz.wikipedia.org>